# 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida O’zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko’ra 2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 156 667,1 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 151 878,8 mlrd. so'mni (102,3 %), o’rmon xo'jaligi – 4 053,4 mlrd. so'mni (102,1 %), baliq xo'jaligi – 734,9 mlrd. so'mni (113,8 %) tashkil qildi.



## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,9 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,6 % - o’rmon xo’jaligi, 0,5 % - baliq xo’jaligi hissasiga to’g’ri keladi.

## Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o’rmon va baliq ho’jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (21 307 mlrd. so’m) va Andijon (16 703 mlrd. so’m) viloyatlariga to’g’ri kelmoqda. Aksincha kam hajmga ega hududlar jumlasiga Qoraqalpog’iston Respublikasi (4 838 mlrd. so’m), Sirdaryo (5 310 mlrd. so’m) va Navoiy (7 014 mlrd. so’m) viloyatlarini keltirib o’tish mumkin.

Xususan yuqori o'sish sur'atlari Farg’ona viloyatida (104,0 %), Qoraqalpog’iston Respublikasida (103,5 %), Surxondaryo (103,4 %) va Qashqadaryo (103,3 %) viloyatlarida kuzatildi. Buxoro (100,2 %), Sirdaryo (100,3 %) va Samarqand (100,6 %) viloyatlarida esa aksincha o’sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati








## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Respublikaning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 13,6 % ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Andijon va Toshkent viloyatlari mos ravishda 10,7 % va 9,9 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,1 %), Sirdaryo (3,4 %) va Navoiy (4,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 150 839,5 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – 76 165,9 mlrd. so'mni (102,4 %), chorvachilik mahsulotlari – 74 673,6 mlrd. so'mni (102,5 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %




Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 73,7 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 23,8 %i – fermer xo'jaliklariga, 2,5 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g’ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti ulushining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g’ri kelishi kuzatildi.

2019 yilning yanvar – sentyabr oylari yakunlariga ko’ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo’jaliklarining ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Samarqand viloyatida (31,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (82,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (9,2 %) qayd etildi.

Fermer xo’jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo`yicha eng kam ko`rsatkich Navoiy viloyatida (14,2 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida (66,1 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xorazm viloyatida (0,8 %) qayd etildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi



# Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 76 165,9 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 50,5 % ni tashkil qildi.



### Donli ekinlar







Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





## O'zbekiston Respublikasi hudulari bo'yicha **donli ekinlar** yetishtirish hajmi, ming t



# Sabzavotlar

Hajmi, ming t




O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7 456,3 ming t sabzavotlar (2018 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan 2,3 % ga ko’p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 79,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha sabzavot yetishtirish hajmi, ming t



# Kartoshka












2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 396,1 ming t kartoshka (2018 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan 2,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 87,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, ming t



## Poliz







**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 355,6 ming t poliz (2018 yilning yanvar - sentyabriga nisbatan 4,8 % ga kam) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 63,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, ming t



# Mevalar va rezavorlar







**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**








2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 991,4 ming t mevalar va rezavorlar (2018 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan 3,2 % ga ko’p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 62,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha mevalar va rezavorlar yetishtirish hajmi, ming t



# Uzum







**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**








2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 247,2 ming t uzum (2018 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan 6,8 % ga ko’p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, ming t



## Chorvachilik



2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 74 673,6 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 49,5 % ni tashkil etdi.

## Go'sht





# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming t

**O'zbekiston Respublikasi 1 799,7**



# Sut








2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7 739,2 ming t sut (2018 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan 1,9 % ga ko’p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ishlab chiqarilgan **sut** hajmi, ming t

| | |
|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **7 739,2** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 221,2 |
| Andijon | 616,4 |
| Buhoro | 693,1 |
| Jizzax | 458,2 |
| Qashqadaryo | 850,3 |
| Navoiy | 339,3 |
| Namangan | 522,4 |
| Samarqand | 954,0 |
| Surxondaryo | 554,8 |
| Sirdayo | 258,0 |
| Toshkent | 716,4 |
| Farg'ona | 708,0 |
| Xorazm | 847,1 |

# Tuxum







Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi








2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5 550,8 mln. dona tuxum (2018 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan 7,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha olingan tuxum hajmi mln. dona



# Baliq

Hajmi, t




O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi








2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 57 001 t. baliq (2018 yilning yanvar – sentyabriga nisbatan 11,5 % ga ko’p) ovlandi. Ovlangan baliqni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, ovlangan baliq umumiy hajmidan 54,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ovlangan baliq hajmi, t

| | |
|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 57 001 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 6 490 |
| Andijon | 3 832 |
| Buhoro | 3 883 |
| Jizzax | 4 175 |
| Qashqadaryo | 4 109 |
| Navoiy | 7 073 |
| Namangan | 1 930 |
| Samarqand | 2 930 |
| Surxondaryo | 1 907 |
| Sirdayo | 2 806 |
| Toshkent | 7 741 |
| Farg'ona | 4 634 |
| Xorazm | 5 491 |

## Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 547,5 ming boshga yetdi.

### Yirik shoxli qoramollar












2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 138,7 ming boshga (1,1 %) ko'paydi.

2019 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, jami yirik shoxli qoramollarning 93,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh

| | |
|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **12 547,5** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 088,9 |
| Andijon | 1 048,5 |
| Buhoro | 1 208,3 |
| Jizzax | 873,6 |
| Qashqadaryo | 1 555,2 |
| Navoiy | 469,1 |
| Namangan | 694,8 |
| Samarqand | 1 583,5 |
| Surxondaryo | 906,2 |
| Sirdayo | 437,6 |
| Toshkent | 825,0 |
| Farg'ona | 998,2 |
| Xorazm | 858,6 |

2019 yilning 1 oktyabr holatiga sigirlarning umumiy bosh soni 4 523,9 ming boshga yetdi.

## Sigirlar










Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 61,6 ming boshga (1,4 %) ko‘paydi.

2019 yilning 1 oktyabr holatiga sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, jami sigirlarning 94,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2019 yilning 1 oktyabr holatiga qo’y va echkilarning umumiy bosh soni 21 646,0 ming boshga yetdi.




2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo’y va echkilar bosh soni – 558,2 ming boshga (2,6 %) ko‘paydi.

2019 yilning 1 oktyabr holatiga qo’y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, jami qo’y va echkilarning 81,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2019 yilning 1 oktyabr holatiga parrandalarning umumiy bosh soni 81 799,4 ming boshga yetdi.




2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 6 116,1 ming boshga (8,1 %) ko'paydi.

2019 yilning 1 oktyabr holatiga sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, jami parrandalarning 58,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh

O'zbekiston Respublikasi 81 799,4




Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
• 71-230-81-11
• 71-230-80-54